



## O'SMIRLARDA XULQI OG'ISHGANLIK KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Yuldashev Anvar Narmo'minovich

Xalqaro innovatsion universitet Psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada o'smirlar orasida xulqi og'ishganlik va huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va oilaviy shart-sharoitlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining sabablari shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, bo'sh vaqtni tashkil etish darajasi hamda psixologik bosim omillari bilan uzviy bog'liqlikda yoritilgan. Shuningdek, turli olimlarning huquqbuzar o'smirlar tipologiyasi, motivatsion va qadriyatlar tizimidagi buzilishlar bo'yicha qarashlari tahlil qilingan. Maqolada huquqbuzarlikning oldini olishda psixoprofilaktik yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari, psixologik xizmatlar va profilaktika tizimida amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** o'smirlar, xulqi og'ishganlik, huquqbuzarlik, deviant xulq-atvor, psixologik omillar, oilaviy muhit, motivatsiya, ijtimoiy dezadaptatsiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются психологические условия и факторы формирования отклоняющегося и противоправного поведения среди подростков. Проанализированы социально-экономические, семейные и психологические причины правонарушений несовершеннолетних, а также особенности их мотивационной и ценностной сфер. Особое внимание уделено типологиям несовершеннолетних правонарушителей, влиянию семейного воспитания, социальной дезадаптации и организации свободного времени. На основе анализа научных подходов обоснована необходимость комплексной психопрофилактической работы с подростками, склонными к девиантному поведению. Результаты исследования могут быть использованы в практике образовательных учреждений и деятельности социально-психологических служб.

**Ключевые слова:** подростки, девиантное поведение, правонарушение, несовершеннолетние, психологические факторы, семейная среда, мотивация, социальная дезадаптация.

**Annotation.** The article examines the psychological conditions and factors contributing to the emergence of deviant and delinquent behavior among adolescents. The study analyzes social, economic, family, and psychological determinants of juvenile delinquency, as well as distortions in adolescents' motivational and value systems. Various typologies of juvenile offenders proposed by researchers are discussed, with particular attention paid to the role of family environment, social maladjustment, peer influence, and ineffective organization of leisure time. The article emphasizes the importance of psycho-preventive approaches in preventing juvenile delinquency. The research findings can be applied in educational institutions and in the practice of socio-psychological support services.

**Key words:** adolescents, deviant behavior, juvenile delinquency, psychological factors, family environment, motivation, social maladjustment, prevention.

### KIRISH

Ma'lumki, o'smirlar huquqbuzarlik holatining maxsus sub'ektlaridir. Huquqbuzarlik sodir etgan bola jazodan ozod etilganda, sud ularni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning majburlov choralari qo'llash doirasida, maxsus ta'lim muassasasiga joylashtirishi mumkin. Qonuniy qaror qabul qilishda sudya, har bir holatda bolaning



turmush darajasini hisobga oladi. Unda bolaning bo'sh vaqti, maktabdagi muvaffaqiyati, hatto ota-onaning bola tarbiyasida tutgan o'rni ham, izchillikda har tomonlama o'rganiladi. Bularning barchasi, qonunga zid harakat qilgan bolaning jinoiy muhitga qaytmasligi uchun amalga oshiriladi.

Har qanday jazo turini tayinlashda asosiy e'tibor, voyaga yetmagan shaxsni qayta tarbiyalashga qaratilishi kerak, chunki qonun doirasida javobgarlikni oshirish huquqbuzarlik nazariyasidagi qator muammolarni hal etishda samarasizdir. Tadqiqotchi T.M.Chapurkning so'zlariga ko'ra, 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmagan yoshlar jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Buning sababi shundaki, ular o'zlarining jinoiy harakatlarining asl mohiyatini va jamoat xavfini to'liq anglamaydilar. Bundan tashqari, huquqbuzarlik sodir etgan bolaning qonuniy vakiliga qo'yilgan jarima miqdori, sudlanuvchini normal hayot kechirishi uchun, zarur bo'lgan moddiy manfaatlardan mahrum qilmasligi kerakligi hisobga olinadi. Demak, yuqoridagi holat, masalaning huquqiy jihatlari bo'lib, muammoning sababi va shart-sharoitlarini psixologik jihatdan o'rganishdan avval, to'xtalib o'tiladigan holat sanaladi. Chunki, jinoiy xulq va voyaga yetmaganlikning qonuniy jihatlari, mutaxassis uchun, sabab va oqibatlarini aniqlashtirishda keng imkon beradi. Aynan, jinoiy xulq-atvorni voyaga yetmagan yoshlar faoliyati bilan o'rgangan tadqiqotchilardan biri bu, A.A.Samoxina bo'lib, muallif huquqbuzarlik sodir etgan o'smirlar guruhining quyidagi turlarini ajaratib o'tadi:

- O'zlarining oddiy va asosiy ehtiyojlarini qondirishga faol intilayotgan o'smirlar;
- Iroda zaifligi va ishonchliligi tufayli vasvasalarga oson beriluvchi voyaga yetmagan yoshlar;
- Xayolparast voyaga yetmagan o'smirlar;
- Jazava yoki psixopatiya ta'sirida harakat qiladigan o'smirlar ( I.A.Rudakova 2005);
- Axloqiy va ruhiy nuqsonlari bo'lgan voyaga yetmagan o'smirlar. Ushbu tasnifga muvofiq, jinoiy xulqqa sabab bo'luvchi omillar sifatida, psixikaning zaifligi, ortiqcha ehtiyojlarni qondirish istagi va ishonuvchanlik kabilar ko'proq tan olinar ekan. Mazkur holatda huquqbuzarlikchi o'smirning psixologik xarakteristikasini yoritish va uning tashkil etuvchilarini aniqlash nazarda tutilgan. Tadqiqotchilardan G.M. Minkovskiy ham huquqbuzarlik sodir voyaga yetmagan yoshlarni o'rganar ekan, jinoiy xulq-atvorni obyektiv va subyektiv omillarning murakkab kombinatsiyasi natijasi deb ta'riflaydi. Muallifning ta'kidicha, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy faoliyatining sabablarini o'rganishda quyidagilarni hisobga olish o'ta muhim vazifa sanaladi:



1) o'smirni sotsializatsiya qilish jarayonlaridagi og'ishlarni va uning shaxsidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, bu antisotsial xatti-harakatlarning sabablarini keltirib chiqaradi;

2) huquqbuzarlik sodir etgan o'smir shaxsini shakllantiruvchi shaxslararo aloqalar va munosabatlar tarkibini o'rganish;

3) ko'p hollarda o'smirlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan va shaxsning ijtimoiy fazilatlarini, huquqbuzar shaxsni shakllantirish jarayonini yo'q qilishni tugatadigan, jinoiy guruhning xatti-harakatlari mazmunini yoritish va boshqalar. Biroq, qator kriminalist mutaxassislar huquqbuzarlik sodir etishga kirishayotgan o'smirlarning, huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini to'liq va o'ziga xos jarayon deb hisoblab, uni ko'proq ijtimoiy va biologik omillar bilan bog'laydilar. Misol uchun, D.I.Julayning aytishicha, voyaga yetmaganlar huquqbuzarlikning to'liq sababi deganda, huquqbuzarlik bilan sababiy va shartli bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalarning butun majmui tushuniladi. Alohida sabab sifatida esa, voyaga yetmagan huquqbuzarlikchi o'smirlarga an'analarga bo'ysunmaslik, xudbinlik, tartibsizlik kabilar hisobga olinadi. Ushbu yondashuvga muvofiq, birgina obyektiv holat huquqbuzarlik sodir yetishga olib kelmaydi. Yuqorida qayd etilgan barcha shart-sharoitlarning shaxsga ta'siri natijasida, jinoiy harakat yoki huquqbuzarlik sodir etilishi mumkin. Tadqiqotchi I.I.Karpesning so'zlariga ko'ra esa, tekshirilayotgan muammolarni to'g'ri hal etish uchun, huquqbuzarlik sodir etishning sabablarini umumiy va xususiy, birlamchi va ikkilamchi sabablarga, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etish uchun sharoit yaratuvchi omillarga bo'lish, o'ta muhim ahamiyatga ega holat sanaladi. Shu bilan birga, u iqtisodiy va boshqa omillarning huquqbuzarlikka ta'sirini aniqlash, muammoni yanada kengroq o'rganishga imkon berishini aytib o'tadi. Qator rus psixolog olimlari Yu.N.Antonyan, A.A.Bakina, J.Yu.Vologina, D.V.Zamishlyeva, V.V.Kuxaruk, A.V.Selyanin, O.Ye.Kutafina, D.I.Dorogin, S.A.Koryaginlar, aynan jinoiy xulqqa sabab bo'luvchi omillar va ularning turlari masalasida, o'ziga xos fundamental izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar hisoblanib, ularning taklificha, yoshlar o'rtasida jinoiy xulqqa sabab bo'luvchi omillar quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Ijtimoiy iqtisodiy omillar: normal yashash sharoitining yo'qligi; ko'cha bolalariga qo'shilish; erta yoshdan yashash vositalarini izlash va mustqal pul topishga urinish;

2. Oila muhiti:

– Disfunksiyali oila ya'ni alkogolizm va giyohvandlikka ruju quygan oilalar. Bunday oilalarda voyaga yetmaganlar o'z holiga tashlab qo'yiladi, ular ustidan nazorat yo'q, ota-onalar ko'pincha, voyaga yetmaganlarni asossiz kaltaklaydilar,



o'g'irlik, tilanchilik, fohishalik kabi ishlarga majburlaydilar( Ye.B. Kurguzkina 2017);

– Haddan tashqari himoyalangan oilalar. Voyaga yetmaganlar doimiy ravishda asossiz vasiylik ostida bo'ladi, ularning mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyati yo'q va hokazo. Oqibatda esa, voyaga yetmaganlar “qo'rqmasdan” huquqbuzarlik sodir etishadi;

– Ruxsat beruvchi oilalar, bunda voyaga yetmagan bola o'zi yashaydi, lekin ayni paytda, tashqi ko'rinishidan bunday oila farovon ko'rinadi. Voyaga yetmagan shaxs huquqbuzarlik sodir etadi, chunki unga buning joiz emasligi, shu ishi uchun jazolanishi muqarrarlighi to'g'risida, hech kim tushuntirmagan;

– Ota-onalar va qarindoshlarning o'zlari, voyaga yetmagan o'smirni huquqbuzarlik sodir etishga undashi yoki oilaviy huquqbuzarlik sodir etuvchi oilalar.

### 3. Psixologik omillar:

– Kleptomaniya (o'g'irlik, o'g'irlik qilishga moyillik, o'g'irlikka undovchi kasallik, ya'ni bu ruhiy kasallik). Voyaga yetmaganlar bunday holatlardada o'zini tuta olmaydi va bu kasallik ekanligini yaxshi tushunmaydi;

– Boshqalar tomonidan o'tkazilgan bosimga nisbatan irodali sifatlarning yo'qligi. Ko'pincha, voyaga yetmaganlar kattalar yoki jismoniy jihatdan kuchliroq bo'lganlarning ta'siri ostida huquqbuzarlik qilishadi;

– Voyaga yetmaganlarning jamiyatdan begonalashishi va atrof-muhitga nisbatan salbiy, hattoki dushmanona munosabatda bo'lishi keyinchalik jinoiy xulq-atvor shakllanishiga olib kelishi mumkin;

– Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik sodir etishga psixologik moyilligi;

– Psixologik bosim. Voyaga yetmagan bola tengdoshlari tomonidan masxara qilinishi yoki uning boshqalar kabi moliyaviy imkoniyatining yetarlicha emasligi va boshqalar.

### 4. Bo'sh vaqtning to'g'ri tashkil etishning yetishmasligi:

– Maqsadsiz vaqtni o'tkazish. Xobbi yoki sevimli mashg'uloti bo'lmagan, mashg'ulotlarga qatnashmaydigan, ko'p vaqtini ko'chada, do'stlari davrasida o'tkazadigan voyaga yetmaganlar huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'ladilar;

– Bo'sh vaqtni nazoratsiz o'tkazish. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nazoratning yo'qligi, voyaga yetmaganlarni huquqbuzarlik sodir etishga undovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Mazkur tasnifga muvofiq, voyaga yetmagan yoshlar orasida jinoiy xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi omil sifatida, turli sabablarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, yuqorida qayd etilgan omillardan farqli o'laroq, huquqbuzarliklar nafaqat nochor oiladagi o'smirlar yoki yetim bolalar, balki oilasi farovon bo'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan ham



sodir etilayotganligini hisobga olish lozim. Shuningdek, o'ziga to'q oilalardan chiqqan o'smirlar ham, o'yin-kulgi, bahs-munozara uchun, huquqbuzarlikga qo'l urishi, jazosiz qolish tuyg'usining ustunligi, ya'ni o'smirlar ota-onasining e'tiborini shu yo'l bilan o'ziga tortishga harakat qiladi. Huquqbuzarlikni sodir etishda ijtimoiy mavqe har doim ham ustun rol o'ynamaydi. Eng badavlat oilalardan chiqqan o'smir yoshlar ham, qator shafqatsiz va jamiyat uchun xavfli huquqbuzarliklarga qo'l o'rayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Umuman olganda, psixologiyada insonning har bir ongli harakati shaxsiy qadriyat bilan baholanadi. Voyaga yetmagan o'smirlarning qadriyat xulq-atvorida kamchilik bor, ular o'z huquqbuzarlik ishiga yetarlicha baho bera olmaydi. Ular jinoiy xatti-harakatlarning sababini o'zlarining salbiy tomonlarida emas, balki boshqalarning xatti-harakatlarida, tashqi muhitda ko'radilar. Qoida tariqasida, ularning o'zini o'zi qadrlashi yuqori va bu ularning noto'g'ri baholanishini, ularning shaxsiyatida qadriyat sohasining buzilishini ko'rsatadi. Huquqbuzarlik motivini huquqbuzarlik sodir etishda ishtirok etayotgan, voyaga yetmagan yoshlarning shaxsiga xos xususiyatlar sifatida, shaxsiy manfaatdorlik, qasos, rashk, mansabparastlik, noto'g'ri tasavvur kabilar ham ajratib o'tiladi. Huquqbuzar yoshlarning motivatsion sohasida ham, o'ziga xos o'zgarishlar kuzatiladi, ularning harakatlari past impulsiv ta'lim darajasida sodir bo'ladi. Bunday qilmishning motivi yashirin bo'lib, "motivsiz" huquqbuzarlik haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otadi. Ularning ehtiyojlari esa, biryoqlamalik va cheklanganlik, ijtimoiy ijobiy ehtiyojlarning rivojlanmaganligi, past darajadagi ehtiyojlarning haddan tashqariligi bilan tavsiflanadi. Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarligi bo'yicha, yetakchi mutaxassis olim sanalgan O.S.Demkoning ta'kidicha, zamonaviy kriminologiya va psixologiya fanlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarlikining tabiati, quyidagi belgilar majmuasi bilan tavsiflanadi:

1. Huquqbuzarlik turi bo'yicha – jinoiy oqibatning obyektini, og'irligi;
2. Ayblov shakli, huquqbuzarlikning maqsadi va motivi;
3. Huquqbuzarlik sodir etish usuli yoki yo'nalishi;
4. Huquqbuzarlik sodir etish holatlari bilan;
5. Yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi;
6. O'smirning huquqbuzarlikka munosabati, sodir etilgan huquqbuzarlikdan

keyingi xatti-harakati va hokazo. Demak, ushbu yondashuvga ko'ra, huquqbuzarlik yoshlarni faqat qonunlarni buzuvchi shaxslar emas, balki ularning yoshi, ijtimoiy ahvoli, huquqbuzarlikka olib keluvchi holatlar, shaxsning yetuklik darajasi kabilar bilan ham o'rganish, muammoning boshqa jihatlarini anqilashga keng imkon berishi ta'kidlanadi.



Ye.V.Rejnikovaga ko'ra, ijtimoiy dezadaptatsiya darajasiga ko'ra, voyaga yetmagan huquqbuzarlikchilarning ikki turi ajratiladi: birinchi tip, g'ayriijtimoiy tip, ya'ni bir necha marta huquqbuzarlik sodir etganlar, ikkinchi tip, assotsial tip - birinchi marta huquqbuzarlik sodir etganlar. R.M.Abizov esa, o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati yo'q, voyaga yetmagan huquqbuzarlikchi o'smirlarni to'rt toifaga ajratadi:

- a) harakat qilmaydigan va jinoiy tahdidlarni yuboradiganlar;
- b) haddan tashqari ishonch natijasida, huquqbuzarlikga borganlar;
- b) kuchli his-tuyg'ularni his qiladigan va boshqalarning noqonuniy harakatlariga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar;
- v) o'ta noto'g'ri holat ta'sirida huquqbuzarlikga qo'l urganlar. Xorij tadqiqotchisi Ye.V.Vaskening so'zlariga ko'ra, qadriyatlar yo'nalishiga ko'ra ham, huquqbuzarlik sodir etgan, voyaga yetmaganlar yoshlarni quyidagi turlarga ajaratish mumkin:

1. G'ayriijtimoiy – foyda olishga yo'naltirilgan, ular ayniqsa jamiyat qadriyatiga tajovuz qilish bilan shug'ullanadilar;
2. Aksilijtimoiy manfaatparast-zo'rlash yo'nalishdagi yoshlar;
3. Antiinson-tajovuzkor yo'nalishdagi yoshlar;

## **XULOSA**

Yuqorida tilga olingan huquqbuzarlik turlarining ehtiyoj, motivatsion, aqliy, irodaviy, emotsional-instrumental, xulq-atvor belgilari bo'yicha, qator tadqiqotlarda, "voyaga yetmagan huquqbuzarlikchi yoshlar va ularni xulq-atvor modeli" ishlab chiqilgan. Ushbu paragraf yuzasidan quyidagi xulosalarga kuelish mumkin:

1. O'smirlar orasida xulqi og'ishganlik namoyon bo'lishining o'ziga xosliklari, bizningcha murakkab mazmundagi muammo sanaladi. Chunki, huquqbuzarlik sabablarini faqatgina ijtimoiy, huquqiy baho berish bilangina xulosalab bo'lmaydi. Qolaversa, masalaning huquqiy profilaktik jihatlari ham mavjud. Har bir tadqiqotchi, ushbu masalada bir qator fanlarning dolzarb vazifalaridan kelib chiqishi maqsadga muvofiq sanaladi.

2. Xulq og'ishiga sabab bo'luvchi shart-sharoitlar nafaqat shaxsning individual - psixologik xususiyatlari, uning shaxsi, hayotiy maqsadlari, hissiy-irodaviy sohasining holati, biologik omillar, kliptomaniya bilan kasallanish, internet-media tizimdagi destruktiv g'oyalar, yoshlar tarbiyasida yo'lga qo'yilgan sustkashliklar, kattalarga taqlid qilish, jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlik, ota-onalarning bola tarbiyasida yo'lga quyayotgan kamchiliklari kabilar bilan ham uzviy bog'liqligi, yuqorida tahlil etilgan barcha tadqiqotlarning mazmunidan yaqqol ko'zga tashlanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Чапурко Т.М. Преступность несовершеннолетних // Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. д. ю. н., проф. А.И. Долговой. М. Норма, 2005. – С.785-786.
2. Кургузкина Е.Б. Личност преступника: вопросы формирования / Е.Б. Кургузкина // Российский следовател. 2017. № 24. С.49-53.
3. Минковский Г.М. Особенности расследования и судебного разбирательства дел о несовершеннолетних / Г.М. Минковский. – М.: Госюриздат, 2009. – С.34-35.
4. Umarov V.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, "Fan" nashriyoti – 2008. –B.117.
5. Tayloqov N.I. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» Toshkent – 2017. – 320 b.

